

**BOSHLANG‘ICH TA‘LIM YO‘NALISHI TALABALARIGA INNOVATSIYA
VA INTEGRATSIYA FANINI SIFATLI TASHKIL ETISH**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasi katta o‘qituvchisi
Nazirov Usmon Qosimovich*

Annotatsiya

Ushbu maqolada Innovatsiya va integratsiya fanini to‘g‘ri tashkil etishga oid metodik tavsiyalar berilgan. Maqolada fanlarni tashkillashtirishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati yoritilgan. Maqolada tavsifiy metoddan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar

Novatorlik, innovatsion pedagogika, ta‘lim integratsiyasi, fanlararo sintez, o‘quv jarayoni

Hozirgi kunda ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar o‘qituvchilardan o‘z kasbiy faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib borishni taqozo etmoqda. Har bir o‘qituvchi zamon bilan hamnafas bo‘lishi kerak, shuning uchun o‘quvchini yuksak rivojlangan va hayotga tayyor shaxsga aylantira oladigan zamonaviy maktabning o‘quv jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarur.

Novatorlik bu - umumiy muammolarga xos yechimlarni o‘z ichiga qamrab olgan, pedagog tafakkurini rivojlantirishning alohida bir turidir. Pedagog ta‘lim va tarbiya berish jarayonida qanchalik izlanuvchan, mahoratli bo‘lsa ham u bosqichga ko‘tarilavermaydi. Innovatsion pedagogika - nazariy va amaliy muammolar yechimini topish uchun asos qilib olingan. Innovatorlar fikricha, odatdagi mumtoz pedagogik nazariyalar eskirib qolgan, yangi sharoitda hozirgi avlodni bu yo‘l bilan tarbiyalash mumkin emas. Bu vazivatda innovatsiya juda muhimdir. Pedagogikada innovatsiya, innovatsion faoliyat, innovatsion pedagogika, ta‘limda innovatsion jarayonlarni boshqarish kabi tushunchalar XX asrning 60-yillarida dastlab AQSH va G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida, «ta‘lim texnologiyasi» tushunchasi e‘tirof etilgan vaqtida paydo bo‘ldi.¹ O‘sha vaqtdayoq Yevropada pedagogik innovatsiyalar markazi va instituti tashkil etildi. Bu tushunchalarning paydo bo‘lishi va innovatsion ta‘lim nazariyasining yaratilishi to‘g‘risida ma‘lumot beruvchi manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu tushunchalar ta‘lim tizimini texnologiyalashtirish, pedagogik texnologiyalarni ta‘lim tizimiga kiritish orqali ta‘lim tizimini isloh qilish, ta‘lim samaradorligini oshirish, shaxs ijtimoiylashuvini ta‘minlash, bu borada muayyan

¹ Rahim a Mavlonova Nargiz Rahmonqulova BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA PEDAGOGIKA, INNOVATSIYA, INTEGRATSIYA O‘QUV QO‘LLANMA .G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent - 2013

muvaffaqiyatlarga erishish uchun ta'lim jarayonida bolaga do'stona munosabatlarni shakllantirishga urinish natijasida vujudga keldi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida o'tgan asrning 80-yillari ikkinchi yarmida, pedagogik faoliyat bu - ijodiy jarayon va pedagogik innovatsiyalar birlashmasi, degan yangi ilmiy yo'nalish tarkib topdi. Bu esa o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyatining shakllanishi va rivojlanish jarayonini tahlil qilish imkonini berdi.

Ta'lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo'la olmaydi. Shu sababli «novatsiya» va «innovatsiya» tushunchalari o'rtasidagi asosiy farqlarni ko'rsatib o'tish zarur. Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko'lami asos bo'lib xizmat qiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli bo'lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lmasa, o'z oldiga muayyan tizimdagi faqat ba'zi elementlarini o'zgartirishni vazifa qilib qo'ygan bo'lsa, u holda biz novatsiya bilan muloqot qilayotgan bo'lamiz. Agar faoliyat ma'lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo'lsa va uning natijasi o'sha tizim rivojlanishiga yoki uning prinsipial o'zgarishiga olib kelsagina innovatsiya deya olamiz.

Ta'lim integratsiyasi chuqur ildizi klassik pedagogikaga borib taqaladi va o'zaro fanlararo bog'liqlik, umumiylikni g'oyasini ilgari suradi, o'quv materialini mazmunini tahlil qilish, shuningdek tabiat bilan uzviy bog'liq holda yaxlit o'rganish tushuniladi. Integratsiya darslari bugungi o'quvchilar uchun ayni muddat bo'lib, ularni zamon bilan birgalikda darslar orqali rivojlanishiga olib keladi. Ya'ni integratsiyaga oid, milliy dasturimiz asosida tuzilgan qo'llanma kitoblardagi har bitta mashqlar, rasmlar, turli qiziqarli savollar o'quvchilarni har tomonlama chet mamlakatlar yoshlari bilan ayni boshlang'ich sinfdan boshlab raqobatlashadigan darajaga olib keladigan darsliklar tuzilgan. Yondosh fanlarni uyg'unlashtirish asosida tuzilgan kurslar yangi tabiiy fanlar va ilmiy yo'nalishlar hosil bo'lishiga olib keldi. Yuqoridagi fikrlarga tayanib, integratsiyani o'qituvchilarning turli fanlar bo'yicha kuzatishlari va xulosalarini tasdiqlab yoki chuqurlashtirib beruvchi yangi dalillarni topib berish manbai deb baholash mumkin. Integratsiya fanlarning mexanik birlashishi bo'lmay, balki fanlararo sintez bo'lib, alohida tizimlarning yaqinlashishi, bog'lanishi va yagona bir yangi narsaning yaratilishidir. Integratsiya ta'lim maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bog'liqligini ko'rsatuvchi bilimlarni berish emas, bolani barcha elementlari bir-biriga bog'lik yaxlit olamni tasavvur qilishga birinchi qadamlarida o'rgatish kerak. Bu maqsadni boshlang'ich maktab amalga oshirishi kerak. Integratsiya-predmetli bilimlar chegarasida yangi tasavvurlarni qabul qilish vositasi. Birinchi navbatda tabaqalashni bilimlar orasida bilmagan joylarni to'ldirish, ular orasidagi aloqalarni o'rganish lozim.

Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'lim berishning zamonaviy metodlarining o'rni va ulardan foydalanishda quyidagi tavsiyalarni beramiz:

1. Vaqtdan unumli foydalanish kerak;

2. Fanlarning o‘zaro bir -biri bilan bog‘ligiga ahamiyat berish zarur;
3. Integratsiya darslari aynan o‘quvchilarda o‘z natijasini ko‘rsatyotganligini tahlil qilish lozim;
4. O‘qituvchining o‘z ustida ishlashi(rivojlanishi);
5. O‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini inobatga olish zarurligi;
6. Yosh xususiyatlariga alohida e‘tibor berishi lozim;
7. O‘quvchilarning qiziqishlariga o‘qituvchi ahamiyat berishi kerak;
8. O‘qituvchi fikrlash qobilyatini rivojlantirishi, yangilik yaratishga moyil bo‘lishi kerak;
9. Har bir dars muayyan yo‘naltirilgan maqsadga ega bo‘lishi lozim;
10. O‘qituvchi darsga bir kun oldindan tayyorgarlik ko‘rishi kerak;
11. O‘qituvchi integratsiya darslarida metodlardan foydalanishni bilishi shart;
12. Darsni qiziqarli qilib tashkillashtirish zarur;
13. Sinfdagi o‘quvchilar faolligini oshirish uchun har bitta o‘quvchining dars jarayoniga qatnashishini inobatga olish kerak.

Integratsiya asosi etib, bir darsning mazmuni va uni otkazish strukturasi olinadi, uni boyitish uchun boshqa fanlarni ham jalb qilishimiz mumkin. Integratsiya ta'lim maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bog'likligini ko'rsatuvchi bilimlarni berishi emas, bolani barcha elementlari bir-biriga bog'liq yaxlit olamni tasavvur qilishga birinchi qadamlarida o'rgatishi kerak. Bu maqsadni boshlang'ich sinf darslaridayoq amalga oshirishi kerak. Bu bilimlar talabalarga bosqichma-bosqich o'rgatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi va tarbiya darslarining integratsiyalashuv imkoniyatlari”. Gulmira Sodiqova 8-IATCHO‘ITM boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi. Boshlang‘ich ta‘lim gazetasi. 2021-yil, 10-son, 21-bet.
2. “Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini fanlarni integratsiyalab o‘qitishga tayyorlash”. Hayitov Anvar Isomiddin o‘g‘li, TDPU tadqiqotchisi. Pedagogika ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022- yil, 3-bet.
3. “Integratsiyalashgan darslarning samaradorligini oshirish va ta‘lim prinsiplari”. Mavlonova.R, Raxmonqulova. N. Boshlang‘ich ta‘limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Toshkent “O‘qituvchi” 2006.
4. “Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini fanlarni integratsiyalab o‘qitishga tayyorlash”. Hayitov Anvar Isomiddin o‘g‘li, TDPU tadqiqotchisi. Pedagogika ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022- yil, 4-bet.